

SAFAR, XOTIRA VA MILLIY UYG‘ONISH: O‘ZBEK PUBLITSISTIKASIDA TURKIYA OBRAZI

Akbar Normatovich NURMATOV

dotsent

filologiya fanlari nomzodi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: akbarnurmatov1962@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” va Jamol Kamolning “Marhabolar, afandim, burasi – Istanbul!..” yo‘l ocherki misolida o‘zbek sayohatnomalarida Turkiya obrazining o‘zgarishi tadqiq etilgan. Qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, germenevtik va matniy tahlil metodlari asosida ikki davrga mansub safar matnlari o‘rganilgan. Natijada Behbudi talqinida Turkiya taraqqiyot, ma‘rifat va milliy fidoyilik namunasi, Jamol Kamol asarida esa tarixiy xotira, ma‘naviy yaqinlik hamda yopiqlikdan dunyoga ochilish timsoli sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Tayanch so‘zlar: sayohatnoma, yo‘l ocherki, Mahmudxo‘ja Behbudi, Jamol Kamol, Turkiya obrazi, madaniy xotira.

ПУТЕШЕСТВИЕ, ПАМЯТЬ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ПРОБУЖДЕНИЕ: ОБРАЗ ТУРЦИИ В УЗБЕКСКОЙ ПУБЛИЦИСТИКЕ

Акбар Норматович НУРМАТОВ

доцент

кандидат филологических наук

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана,

Ташкент, Узбекистан

e-mail: akbarnurmatov1962@gmail.com

Аннотация

В статье исследуется эволюция образа Турции в узбекских путевых произведениях на материале «Воспоминаний о путешествии» Махмудходжи Бехбуди и путевого очерка Джамола Камола «Приветствую вас, эфенди, это – Стамбул!..». С применением сравнительно-типологического, историко-сравнительного, герменевтического и текстового методов проанализированы произведения двух исторических эпох. Установлено, что у Бехбуди Турция предстаёт образцом развития, просвещения и национального самопожертвования, тогда как у Джамола Камола она осмысливается как символ исторической памяти, духовной близости и выхода из изоляции к открытому миру.

Ключевые слова: путешествие, путевой очерк, Махмудходжа Бехбуди, Джамол Камол, образ Турции, культурная память.

So‘nggi yillarda jahon mediasida trevel jurnalistikasi faqat turizm haqidagi axborotni tarqatuvchi yo‘nalish sifatida emas, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqot, sivilizatsiyalararo anglashuv va mamlakat imijini shakllantiruvchi muhim kommunikativ maydon sifatida o‘rganilmoqda. Raqamli media sayohat taassurotlarini yetkazish shakllarini keskin kengaytirgan bo‘lsa-da, mazkur yo‘nalishning hujjatlilik, muallif ishtiroki, kuzatuv, qiyoslash va baholash kabi asosiy belgilari tarixan sayohatnoma va yo‘l ocherki tajribasiga borib taqaladi. Shu sababli zamonaviy trevel jurnalistikasini milliy safarnomachilik an‘analaridan ajratib tadqiq etish janr taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini to‘liq anglashga imkon bermaydi.

Sayohatnoma insonning o‘zga makonlarni anglash, boshqa xalqlar hayotini o‘rganish va ko‘rgan-kechirganlarini jamoatchilikka yetkazish ehtiyojidan tug‘ilgan qadimiy badiiy-publitsistik shakllardan biridir. U turli tarixiy sharoitlarda geografik tavsif, etnografik kuzatuv, xotira, kundalik, safar hisoboti va yo‘l ocherki vazifalarini bajargan. Safar matnida real yo‘l va makon kompozitsiyaning tashqi tayanchi bo‘lsa, muallifning tanlovi, qiyosi va bahosi uning ichki publitsistik mantiqini belgilaydi. Shu jihatdan sayohat matni nafaqat tashqi olamning tasviri, balki muallif va u mansub jamiyatning o‘zini anglash usuli hamdir. Zamonaviy nazariyada ham travel writing “o‘zga” makonni tasvirlash orqali “o‘zlik”ni qayta ko‘rish va madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatni talqin qilishga xizmat qiladigan diskurs sifatida baholanadi [10; 9–11].

O‘zbek safarnomachiligi tarixida Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Abdurazzoq Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Ahmad Donish merosi muhim o‘rin tutadi. XX asr boshida esa sayohatnoma jadid publitsistikasi tarkibida yangi ijtimoiy vazifa kasb etdi: safar davomida ko‘rilgan ta’lim tizimi, matbuot, shahar madaniyati, iqtisodiy faoliyat va siyosiy jarayonlar Turkistonning ahvoli bilan qiyoslandi. Bunday qiyos o‘quvchini shunchaki boshqa yurt bilan tanishtirmas, balki milliy taraqqiyotning sabab va to‘siqlari haqida fikrlashga undardi. Behbudiyning safar tajribasi uning ma’rifiy dasturi bilan uzviy

bog‘langan: Kavkaz, Turkiya va Misrda ko‘rgan ta‘lim muassasalari yangi usul maktablarini rivojlantirish haqidagi qarashlariga ta‘sir ko‘rsatgan [4].

Turkiya obrazi bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Ikki xalqning til, din, tarix va madaniyat jihatidan yaqinligi sabab Turkiya o‘zbek mualliflari uchun oddiy xorijiy makon emas, taraqqiyot tajribasini ko‘rsatadigan hamda milliy o‘zlikni qayta anglashga yordam beradigan ramziy hudud bo‘lgan. Biroq ushbu obraz turli siyosiy davrlarda bir xil qolmagan. Jadid publitsistikasida u musulmon Sharqidagi yangilanish va fidoyilik timsoli bo‘lsa, sovet davrida mafkuraviy ehtiyotkorlik va axboriy yopiqlik ta‘sirida cheklangan; qayta qurish yillarida esa tarixiy qarindoshlik va ochiqlikka intilish mazmuni bilan qayta jonlangan.

Maqolaning maqsadi Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” hamda Jamol Kamolning “Marhabolar, afandim, burasi – Istanbul!..” yo‘l ocherkida Turkiya obrazining badiiy-publitsistik talqinini qiyosiy o‘rganish, obrazdagi tarixiy o‘zgarishlarni aniqlash va mazkur o‘zgarishlarning o‘zbek yo‘l ocherki taraqqiyotidagi o‘rnini belgilashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida ikki muallifning Turkiya safariga oid matnlari, predmet sifatida esa ulardagi makon tasviri, muallif pozitsiyasi, qiyoslash usuli, tarixiy xotira va milliy taraqqiyot g‘oyalari olindi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, germeneytik hamda publitsistik matn tahlili usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik yondashuv ikki muallif yaratgan Turkiya obrazidagi mushtarak va farqli belgilarni aniqlashga xizmat qiladi. Tarixiy-qiyosiy usul asarlarning yaratilgan davri, siyosiy kommunikatsiya sharoiti va muallif dunyoqarashining matn mazmuniga ta‘sirini baholash imkonini beradi. Germaneytik tahlil vositasida Istanbul, tarixiy obidalar, harbiy fidoyilik, uzilgan madaniy aloqalar va “dunyoga bog‘lanish” kabi ramziy qatlamlar sharhlanadi. Matniy tahlilda fakt, taassurot, tasvir, iqtibos, muallif bahosi va publitsistik xulosa o‘rtasidagi bog‘lanishga e‘tibor qaratiladi.

Professor O.Tog‘ayev safarnomani muallifning qishloq, shahar va mamlakatlararo yo‘l davomida yig‘gan mushohada hamda mulohazalari, ko‘rgan va eshitganlarining badiiy-publitsistik tasviri sifatida izohlaydi [5; 54]. Bu ta‘rif

yoʻl ocherkining uch asosiy tayanchini koʻrsatadi: real safar, bevosita kuzatuv va publitsistik talqin. Yoʻlning oldindan mavjudligi fabula uchun tabiiy izchillik beradi; uchrashuvlar, shaharlar, manzaralar va hodisalar esa muallif tanlovi orqali mazmuniy tizimga aylanadi. Demak, sayohatnoma sof qaydlar yigʻindisi emas: u faktlarni muallifning ijtimoiy maqsadi atrofida birlashtiradigan kompozitsion shakldir.

Safar matnining hujjatlilikida subyektivlik yoʻq degani emas. Aksincha, qaysi obyektga qarash, nimani batafsil tasvirlash, qaysi hodisani oʻz yurti bilan qiyoslash muallif pozitsiyasini yuzaga chiqaradi. Hanusch trevel jurnalistikasida xorijiy makonlar tasviri koʻpincha muallifning tanlovi va madaniy qarashlari orqali qurilishini koʻrsatadi [9; 68–82]. Behbudiy va Jamol Kamol matnlarida ham Istanbul bir xil geografik joy boʻlib qolsa-da, tarixiy vaziyat va kommunikativ maqsad oʻzgargani sari uning publitsistik mazmuni yangilanadi.

Tahlilda birlamchi manba sifatida Behbudiyning 1999-yilda chop etilgan “Tanlangan asarlar” toʻplamidagi “Sayohat xotiralari” hamda “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasining 1989-yil iyun sonida eʼlon qilingan Jamol Kamol yoʻl ocherki olindi [1; 72–82]. Qoʻshimcha ilmiy kontekstni jadidchilikning ijtimoiy-madaniy tabiati, milliy uygʻonish adabiyoti va trevel jurnalistikasi nazariyasiga oid tadqiqotlar tashkil etdi [2; 6; 8;10].

Jadid safarnomasida Turkiya: taraqqiyot va fidoyilik mezoni. Jadid safarnomalarida xorij mamlakatini tasvirlashdan koʻzlangan maqsad safar taassurotlarini ketma-ket bayon qilish bilangina cheklanmagan. Muallif oʻzga yurtdagi maktab, matbuot, savdo, boshqaruv va shahar hayotini kuzatib, ulardan Turkiston jamiyatining holatini baholash mezoni sifatida foydalangan. Jadidchilikning oʻzi ham musulmon jamiyatini zamonaviy bilim, matbuot va taʼlim orqali yangilashga qaratilgan madaniy islohot harakati edi [8; 1–15]. Shuning uchun jadid sayohatnomasida geografik masofa ijtimoiy tafakkur masofasiga aylanadi: “u yerda” koʻrilgan yutuq yoki tanazzul “bu yerda” qilinishi lozim boʻlgan ishlarni koʻrsatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Sayohat xotiralari”ni “Oyina” jurnalida e‘lon qilishi o‘zbek davriy matbuotida yo‘l taassurotlarining izchil publitsistik shaklga kelishida muhim bosqich bo‘ldi. Muallif 1899–1900-yillardagi ilk haj safarida Kavkaz, Istanbul va Qohira orqali sakkiz oydan ortiq yo‘lda bo‘lganini eslaydi. Keyinchalik Rossiya shaharlari hamda musulmon dunyosiga qilgan safarlari uning dunyoqarashini kengaytirgan. XX asr boshida turkiy-musulmon matbuotida safar asarlarining ko‘paygani ham Behbudiy uchun janriy muhit yaratdi. U safarni shaxsiy ziyorat doirasidan chiqarib, jamoatchilikka zarur ijtimoiy bilim manbaiga aylantirdi.

Behbudiy qayerga bormasin, birinchi navbatda ta‘lim, matbuot, matbaachilik va jamoat hayoti bilan qiziqadi. Bokuda qisqa muddat bo‘lganiga qaramay gazeta va jurnal idoralarining faoliyatini kuzatishi, boy musulmonlarning matbuot taraqqiyotiga yetarli hissa qo‘shmayotganidan afsuslanishi uning safar matnidagi asosiy mezonni ko‘rsatadi. Yirik eronlik savdogardan gazeta so‘raganida unda gazeta yo‘qligini bilgach, muallif: “Ana, sizga musulmonning katta savdogari, Vatandan va butun olami islomdan xabarsiz yashaydur, oh...” deya yozadi [1; 75]. Bu jumlada individual holat umumiy ijtimoiy xulosaga aylantiriladi: axborotdan uzilish iqtisodiy boylikni ham milliy taraqqiyot omiliga aylantirmaydi.

Istanbulga kelgach, safarnoma ohangida sezilarli ko‘tarinkilik yuzaga keladi. Behbudiy Turkiya haqida “yozilaturg‘on matlublar har nimarsadan ko‘p” ekanini ta’kidlab, shahar manzaralarini, dengiz, masjid, ziyoratgoh va tarixiy obidalarni tasvirlaydi [1; 77]. Istanbul uning nigohida bir vaqtning o‘zida tarixiy xotira, diniy markaz, zamonaviy siyosat va milliy kurash makonidir. Muallif shaharni faqat mahobatli me‘morchilik orqali ideallashtirmaydi; ko‘rgan voqelikni musulmon dunyosining umumiy ahvoli bilan bog‘laydi.

Turkiya olib borayotgan urush haqidagi kuzatuvlar safarnomaning siyosiy-publitsistik qatlamini kuchaytiradi. Turk askarlarining og‘ir sharoitdagi matonatini tasvirlar ekan, Behbudiy: “...Yerlarni qazib, tomurlar qobug‘ini yebdurlar. Ana, XX asrning madaniyati va millatchiligi. Bu bo‘lmasa va mundoq fidokorlik qilinmasa, millat va dinlar mahv bo‘lub ketar...” deb yozadi [1; 78]. Iqtibosda

“madaniyat” tushunchasi faqat texnik yoki maishiy rivoj bilan emas, millatni saqlab qolish uchun zarur iroda va fidoyilik bilan bog‘lanadi. Demak, Turkiya obrazi Behbudiy uchun tayyor va nuqsonsiz taraqqiyot namunasi emas, u milliy mavjudlik uchun kurash jarayonidagi jamiyatdir.

Mazkur ko‘tarinki munosabat muallifning tanqidiy nigohini susaytirmaydi. Behbudiy Yildirim Boyazid jomeining xarob holatini ko‘rib, “butun xarob bo‘lub, ichi mazbalogohdur (Ana musulmonlik)” deya keskin baho beradi [1; 79]. Bir tomonda askarning fidoyiligi ulug‘lansa, ikkinchi tomonda tarixiy merosga loqaydlik qoralanadi. Shu ikki tomonlama baholash safarnomaning publitsistik ishonchliligini oshiradi: muallif qarindoshlik yoki diniy yaqinlik sabab voqelikni biryoqlama bezamaydi.

Behbudiyning Turkiya haqidagi qarashlarida uch asosiy qatlam ajraladi. Birinchisi – ma’rifiy qatlam: maktab, matbuot va dunyo voqealaridan xabardorlik millat ravnaqining sharti sifatida qo‘yiladi. Ikkinchisi – siyosiy qatlam: davlat va millatning yashab qolishi tashkilotchilik, iroda hamda fidoyilikka bog‘lanadi. Uchinchi – axloqiy-tanqidiy qatlam: tarixiy merosga beparvolik, savodsizlik va loqaydlik musulmon jamiyatining ichki kamchiligi sifatida ko‘rsatiladi. Shu bois uning Istanbul tasviri maqtov va tanqidning dinamik uyg‘unligidan tashkil topadi.

Behbudiy safardan keyingi ma’rifiy faoliyatida ko‘rgan tajribalarini amaliy dasturga aylantirdi. Manbalarda Kavkaz, Turkiya va Misr ta’lim muassasalari bilan tanishuv uning yangi usul maktablari, darsliklar va milliy matbuot haqidagi qarashlariga ta’sir ko‘rsatgani qayd etiladi [4]. Bu holat “Sayohat xotiralari”ning faqat adabiy yoki xotiraviy emas, balki ijtimoiy amaliyot bilan bog‘langan publitsistik hujjat ekanini ko‘rsatadi. Safar davomida olingan axborot o‘quvchiga yetkaziladi, undan chiqarilgan xulosa esa Turkistonni isloh etish g‘oyasiga xizmat qiladi.

Sovet davri: mafkuraviy to‘siq va Turkiya tasvirining cheklanishi. Sho‘rolar davrida Turkiyaga borgan o‘zbek jurnalistlari, olimlari va yozuvchilari bo‘lganiga qaramay, bu safarlar asosida yaratilgan xolis sayohatnoma va xotiralar soni ko‘p emas. Buning sababini safarning o‘zida emas, Turkiya haqidagi ommaviy tasvirni

belgilab bergan mafkuraviy tizimda izlash lozim. Sovet diskursida Turkiya ko‘pincha “begona kapitalistik olam” yoki “panturkizm manbai” sifatida talqin etildi. Natijada tarixiy-madaniy yaqinlikni erkin yoritish, ikki xalq o‘rtasidagi mushtaraklikni ochiq ta’kidlash siyosiy ehtiyotkorlikni talab qilardi.

Rasmiy delegatsiya yoki ilmiy anjuman doirasidagi safarlar haqidagi materiallar ko‘pincha protokol xabari, ishlab chiqarish yutug‘i yoxud mafkuraviy qiyos shaklida yozildi. Muallifning shaxsiy hayrati, tarixiy xotirasi va mahalliy odamlar bilan erkin muloqoti cheklangani sabab yo‘l ocherkining asosiy belgilaridan bo‘lgan subyektiv kuzatuv zaiflashdi. Turkiya real madaniy makon sifatida emas, avvaldan belgilangan siyosiy kategoriyalar ichida ko‘rsatildi. Bu holat janrning hujjatlilik imkoniyatini butunlay yo‘qotmagan bo‘lsa-da, uning talqin erkinligini toraytirdi.

1980-yillarning ikkinchi yarmida “qayta qurish” va “oshkoralik” siyosati kuchayishi bilan vaziyat o‘zgara boshladi. Publitsistikada ilgari chetlab o‘tilgan tarix, milliy xotira, til va xalqaro madaniy aloqalar haqidagi savollar ochiqroq qo‘yildi. Yo‘l ocherki ham rasmiy safar hisobotidan tanqidiy mushohada hamda jamoatchilik fikrini shakllantiradigan faol janrga qayta boshladi. Aynan mana shu o‘tish davrida Jamol Kamolning Turkiya safari haqidagi asari yuzaga keldi.

Jamol Kamol talqinida Istanbul: tarixiy xotira va dunyoga ochilish. Jamol Kamolning 1989-yil iyun oyidagi Turkiya safari asosida yozilgan “Marhabolar, afandim, burasi – Istanbul!..” yo‘l ocherki qayta qurish davri o‘zbek publitsistikasidagi mazmuniy burilishni yaqqol ko‘rsatadi. Muallif Istanbulga “yetsam” deb o‘ttiz yil yo‘l bosganini, bu shaharni ko‘rishni yigirma bir yoshidan orzu qilganini aytadi [3]. Demak, safar geografik masofani bosib o‘tishdan oldin uzoq davom etgan ma’naviy intilish sifatida boshlangan. Istanbul muallif tasavvurida tarix, adabiyot va qarindoshlik orqali allaqachon mavjud edi; real uchrashuv ana shu ichki obrazni sinovdan o‘tkazadi.

Otaturk aeroportidagi ilk muloqot asarning emotsional kalitiga aylanadi. Ofitser anketadagi Toshkent nomini ko‘rgach: “Toshkentdan galdinizmi?..

Buyuring, bey afandim, marhabalar!..” deya iliq munosabat bildiradi [3]. Bu kichik epizod rasmiy chegaradan insoniy yaqinlikka o‘tishni ifodalaydi. Muallif Turkiyaga “begona mamlakat”ga kelgan sayyoh sifatida emas, uzoq vaqt ajratib qo‘yilgan madaniy qarindosh sifatida kirib boradi. Yo‘l ocherkining sarlavhasi ham aynan shu kutib olish ohangini butun matnga yoyadi.

Jamol Kamol Turkiyaga ilgari kelgan ayrim sovet fuqarolarining mahalliy vatandoshlar bilan erkin gaplasha olmaganini Sobir Sayhon tilidan keskin tasvirlaydi: “Bu yerga goh-goh sayyoh bo‘lib yoki ilmiy anjumanlarga yurtdoshlar kelib turishadi, kelganlar ko‘pincha biz bilan uchrashmaydi, uchrashsa – gapirishmaydi, gapirishsa, yolg‘on-yashiqdan nariga o‘tishmaydi...” [3]. Iqtibos individual kishilarni qoralashdan ko‘ra tizim yaratgan qo‘rquv va soxta axborot muhitini ochishga xizmat qiladi. “Yurt dorilomon, daryolarda sut, ariqlarda bol oqadi” mazmunidagi rasmiy tasvir real hayot bilan aloqasi uzilgan propaganda timsoliga aylanadi.

Istanbul universitetiga tashrif epizodlari uzilgan tarixiy xotiraning naqadar chuqur ekanini ko‘rsatadi. Muallif noma’lum rassom ishlagan Alisher Navoiy suratini, Amir Temur bayrog‘ini va Ahmad Yassaviy tasvirini dastlab taniy olmaganini samimiy e’tirof etadi. Ushbu tanimaslik oddiy shaxsiy bilimsizlik sifatida emas, qariyb bir asrlik siyosiy uzilish oqibati sifatida talqin qilinadi. O‘zbek ziyolisi o‘z tarixining bir qismini xorijiy muzey va ilmiy muhitda qayta kashf etadi. Shu ma’noda Istanbul makoni muallif uchun xotiraning tashqi arxivi vazifasini bajaradi.

Asarda Istanbul, Anqara va Ko‘niyo shaharlarining tasviri tarixiy obidalar, shahar muhiti, odamlarning muomalasi hamda tabiat manzaralari bilan uyg‘un beriladi. Ayniqsa, Ko‘niyodagi Mavlono Jaloliddin Rumiya maqbarasini ziyorat qilish Sharq ma’naviy merosining umumiyligini his etish nuqtasiga aylanadi. Muallif qadimiy obidalarni faqat sayyohlik obyektlari sifatida sanamaydi; ular orqali xalqlarni bog‘lovchi ma’naviy vaqtni tiklaydi. Natijada Turkiya obrazi tarixiy yodgorliklar majmui emas, tirik madaniy xotira makoni sifatida shakllanadi.

Jamol Kamol o'sha davrda o'zbek yozuvchilarining asarlari Turkiyada deyarli tarjima qilinmaganini ham qayd etadi. Mazkur fakt ikki xalq o'rtasidagi tabiiy yaqinlik o'z-o'zidan faol madaniy almashinuvga olib kelmasligini ko'rsatadi. Til va tarix mushtarak bo'lsa-da, tarjima, nashr, ilmiy aloqa va bevosita muloqot bo'lmasa, yaqinlik ramziy darajada qoladi. Yo'l ocherkida bu holat adabiy aloqalarni tiklash zaruratiga qaratilgan amaliy publitsistik xulosaga aylanadi.

Mustafo Kamol Otaturkning milliy mustaqillik va taraqqiyot haqidagi fikrlarining safarnoma matniga kiritilishi ham ramziy ahamiyat kasb etadi. Ular sovet mafkurasi zaiflashayotgan pallada o'zbek ziyolisi ongida paydo bo'layotgan yangi siyosiy-ma'naviy izlanishlar bilan uyg'unlashadi. Muallif Turkiyaning tarixiy tajribasini tayyor siyosiy nusxa sifatida taklif qilmaydi; aksincha, millatning o'z taqdiriga egaligi va dunyo bilan teng muloqot qilishi haqidagi ehtiyojni ifodalaydi.

Ocherkning "Yo Olloh, biz ham dunyo bilan bog'lanayapmiz shekilli!.." mazmunidagi ruhiy xulosa bilan yakunlanishi asarning bosh publitsistik g'oyasini jamlaydi [3]. Bu jumlada shaxsiy safar quvonchi, tarixiy ayriliq og'rig'i va siyosiy ochiqlikka umid birlashadi. Istanbulga yetib kelish ayni paytda yopiq axborot makonidan chiqish, o'z tarixining tashqarida saqlangan qismlari bilan uchrashish va jahon madaniy jarayoniga qayta qo'shilish timsolidir.

Jamol Kamol publitsistikasini o'rgangan tadqiqotlarda uning 1980-yillar oxiri va 1990-yillar boshidagi maqolalarida jamiyatni qayta qurish, ma'naviy-axloqiy tiklanish hamda dunyoga ochilish masalalari yetakchi ekani ta'kidlanadi [7; 168–170]. "Marhabolar, afandim, burasi – Istanbul!.." ana shu umumiy konsepsiyaning safar janridagi ifodasidir. Asar Turkiya haqida axborot berish bilan cheklanmay, o'zbek jamiyatining axboriy yopiqligi va tarixiy xotirasidagi uzilishlarni ham muhokama qiladi.

Ikki talqinning qiyosiy-tipologik xususiyatlari. Behbudiy va Jamol Kamol asarlari o'rtasida qariyb yetmish besh yillik tarixiy masofa mavjud. Behbudiy Istanbulni imperiyalar inqirozi, urush va jadid islohotchiligi sharoitida kuzatsa, Jamol Kamol uni sovet tizimining yakuniy bosqichi, oshkoralik va milliy xotirani

tiklash jarayonida ko‘radi. Shunga qaramay, har ikki muallif uchun Turkiya oddiy sayohat manzili emas, u o‘z jamiyatining buguni va kelajagi haqida mulohaza yuritish imkonini beruvchi “qiyosiy oyna”dir.

Mushtaraklikning birinchi belgisi – muallifning faol ishtiroki. Har ikki matnda voqealar chetdan betaraf kuzatilmaydi. Behbudiy gazeta o‘qimaydigan savdogardan iztirobga tushadi, askarlar matonatidan ruhlanadi, qarovsiz jomega achchiq tanbeh beradi. Jamol Kamol aeroportdagi iliq kutib olishdan quvonadi, tarixiy siymolar tasvirini tanimaganidan hayratlanadi va uzilgan aloqalardan iztirob chekadi. Subyektiv hissiyot fakti almashtirmaydi, balki uning ijtimoiy ma’nosini ochadi.

Ikkinchi mushtarak belgi – qiyoslash. Behbudiy ko‘rgan har bir ijtimoiy holatni Turkiston maorifi, matbuoti va musulmonlarning umumiy ahvoli bilan qiyoslaydi. Jamol Kamol esa Turkiyadagi tarixiy xotira va ochiq muloqotni sovet O‘zbekistonidagi axboriy uzilish bilan taqqoslaydi. Birinchi muallifning qiyosi ko‘proq “taraqqiy etgan – qoloq”, “xabardor – bexabar” qarama-qarshiligiga qurilsa, ikkinchisida “bog‘langan – ajratilgan”, “eslangan – unutilgan”, “ochiq – yopiq” oppozitsiyalari yetakchi.

Uchinchi mushtaraklik – Turkiyaning milliy o‘zlikni anglashdagi vositachilik vazifasi. Behbudiy turk askarining fidoyiligini millat va dinning yashab qolish sharti sifatida ko‘radi. Jamol Kamol esa Navoiy, Temur, Yassaviy va Rumi bilan bog‘liq xotiralar orqali turkiy va islomiy madaniyatning umumiy qatlamlarini tiklaydi. Har ikki holatda “o‘zga yurt”ga safar aslida “o‘z” tarixini va jamiyatini chuqurroq anglashga olib keladi.

Farqli jihat, avvalo, publitsistik markazda namoyon bo‘ladi. Behbudiy matnida asosiy savol: millat taraqqiy etishi uchun qanday ijtimoiy sifatlar, bilim va institutlar zarur? Jamol Kamolda esa savol boshqacharoq: tarixiy va ma’naviy jihatdan yaqin xalqlar o‘rtasida yuzaga kelgan uzilishni qanday yengish va dunyo bilan qayta bog‘lanish mumkin? Shu bois Behbudiyda Turkiya ko‘proq taraqqiyot va fidoyilik modeli, Jamol Kamolda tarixiy xotira va ochiqlik ramzidir.

Tasvir usulida ham farq bor. Behbudiy safar qaydlarini qisqa, daliliy, ko‘pincha keskin publitsistik hukm bilan yakunlaydi. Uning “Ana musulmonlik” yoki “Ana XX asrning madaniyati va millatchiligi” kabi ifodalari fakti tezda umumlashtirib, o‘quvchiga bevosita axloqiy-siyosiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamol Kamol esa epizod, dialog, xotira va samimiy iqrar vositalariga kengroq o‘rin beradi. U xulosani ko‘pincha voqea ruhidan chiqaradi; shu sabab ocherkning lirizm va memuar xususiyati kuchliroq.

Ikkala asarda hujjatlilik va badiiylilik muvozanati turlicha qurilgan bo‘lsa-da, ular yo‘l ocherkining asosiy kommunikativ vazifasida birlashadi: o‘quvchini boshqa makon bilan tanishtirish orqali o‘z jamiyati haqida o‘ylashga undash. Zamonaviy trevel jurnalistikasi uchun ham ushbu xususiyat dolzarb. Manzil haqida amaliy ma’lumot berishning o‘zi yetarli emas. Muallifning asoslangan kuzatuvi, tarixiy kontekst, mahalliy odamlarning ovozi va madaniy mas’uliyat materialning ijtimoiy qiymatini belgilaydi.

Turkiya obrazining evolyutsiyasi va janriy vorisiylilik. Tahlil qilingan matnlar asosida o‘zbek sayohatnomalaridagi Turkiya obrazining evolyutsiyasini uch bosqichda ko‘rish mumkin. Birinchi bosqich – jadid davri bo‘lib, unda Turkiya musulmon Sharqidagi islohot, ma’rifat, matbuot va milliy iroda tajribasini namoyon etadi. Ikkinchi bosqich – sovet davridagi cheklangan tasvirlar bosqichi; unda Turkiyaga munosabat mafkuraviy qoliplar bilan boshqariladi, tarixiy-madaniy yaqinlik ikkinchi planga suriladi. Uchinchi bosqich – qayta qurish va mustaqillik arafasi bo‘lib, bunda Turkiya tarixiy xotira, qarindoshlik, erkin muloqot va jahon bilan bog‘lanish timsoliga aylanadi.

Mazkur evolyutsiya faqat tasvir obyektining o‘zgarishi emas, o‘zbek publitsistikasidagi muallif erkinligining o‘sishini ham ifodalaydi. Behbudiy mustamlaka sharoitida safar faktlari orqali milliy islohot zaruratini ilgari surgan bo‘lsa, Jamol Kamol mafkuraviy tizim zaiflashgan davrda tarixiy haqiqat, uzilgan aloqalar va ochiqlik muammosini bevosita tilga oladi. Shunday qilib, yo‘l ocherki har ikki davrda ham mavjud siyosiy sharoitning chegaralarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Janriy vorisiylik fakt, manzara, dialog, tarixiy ma'lumot, shaxsiy taassurot va ijtimoiy xulosaning yagona matnda birlashishida ko'rinadi. Behbudiyda qisqa qayd va keskin hukm ustuvor bo'lsa, Jamol Kamolda dialogik sahna va xotira kengroq. Biroq har ikki usulda muallifning safardagi jismoniy harakati tafakkur harakati bilan uyg'unlashadi. Bir shahardan boshqasiga o'tish fikrning yangi masalasini ochadi. Tashqi yo'l ichki anglash kompozitsiyasiga aylanadi.

Bu an'ana bugungi trevel jurnalistikasiga bir nechta amaliy mezon beradi. Birinchidan, xorijiy mamlakatni stereotip yoki reklama obyektiga aylantirmasdan, real ijtimoiy-madaniy kontekstda tasvirlash zarur. Ikkinchidan, tarixiy yaqinlik maqtovg'a asos bo'lishi mumkin, biroq tanqidiy xolislikni yo'qotmasligi kerak. Behbudiyning Turkiyadagi yutuq va kamchiliklarni birdek ko'rsatishi bunga ibratdir. Uchinchidan, safar matnida mahalliy xalq ovozi, bevosita dialog va tekshirilgan faktlar bo'lishi kerak. To'rtinchidan, qiyos o'quvchini bir xalqni ikkinchisidan ustun qo'yishga emas, jamiyat rivojining sabablarini anglashga yetaklashi lozim.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi zamonaviy madaniy aloqalar sharoitida ushbu safarnomalar tarixiy manba bo'lishi bilan birga madaniy diplomatiya uchun ham metodik tajriba beradi. Behbudiy tajriba o'rganishni milliy ehtiyoj bilan bog'lasa, Jamol Kamol umumiy xotirani muloqot orqali qayta tiklaydi. Har ikki model bugungi jurnalist uchun muhim: mamlakat imijini yaratish jarayonida tarixiy dalil, insoniy hikoya, tanqidiy kuzatuv va o'zaro hurmat uyg'un bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda Mahmudxo'ja Behbudiy va Jamol Kamolning Turkiya safariga oid asarlari o'zbek sayohatnomasi tarixining ikki muhim bosqichini ifodalaydi. Behbudiy "Sayohat xotiralari"da Istanbul va Turkiyani musulmon Sharqidagi taraqqiyot, ma'rifat, matbuot, milliy iroda hamda fidoyilik mezonida baholaydi. U turk askarlarining matonatini e'tirof etish bilan birga, tarixiy merosga beparvolikni keskin tanqid qiladi. Shu tariqa muallif yaqin xalq va mamlakatni ideallashtirishdan saqlanib, xolis publitsistik kuzatuv tamoyilini namoyon etadi.

Jamol Kamolning “Marhabolar, afandim, burasi – Istanbul!..” ocherkida esa Turkiya tarixiy xotira, til va madaniyat mushtarakligi, uzilgan aloqalarni tiklash hamda yopiqlikdan dunyoga chiqish ramzi sifatida talqin qilinadi. Aeroportdagi samimiy kutib olish, Istanbul universitetidagi tarixiy eksponatlar, Ko‘niyodagi ziyorat va o‘zbek adabiyoti tarjimalarining yetishmasligi haqidagi kuzatuvlar shaxsiy taassurotdan keng ijtimoiy-madaniy xulosaga olib boradi. Asarning yakuniy ruhiy formulasi qayta qurish davridagi ochiqlik ehtiyojini badiiy-publitsistik tarzda mujassamlashtiradi.

Qiyosiy tahlil Turkiya obrazining taraqqiyot modelidan tarixiy xotira va madaniy muloqot timsoliga tomon kengayganini ko‘rsatdi. Bu o‘zgarish sayohat obyektidan ko‘ra o‘zbek jamiyatining tarixiy holati, axborot muhiti va milliy o‘zini anglash jarayonidagi siljishlar bilan bog‘liq. Har ikki asarda ham Turkiya “o‘zga” hudud sifatida emas, Turkiston va O‘zbekistonning o‘z muammolarini ko‘rishga yordam beruvchi qiyosiy makon vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Behbudiy va Jamol Kamol safar matnlarini yagona tarixiy-janriy chiziqda qiyoslash, ulardagi Turkiya obrazini muallif pozitsiyasi, siyosiy sharoit va milliy xotira bilan bog‘liq holda talqin etishdan iborat. Amaliy jihatdan olingan xulosalar o‘zbek trevel jurnalistikasida tarixiy kontekst, fakt aniqligi, madaniy sezgirlik va tanqidiy qiyos tamoyillarini rivojlantirishda qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бехбудий, Махмудхўжа. Танланган асарлар / М. Бехбудий. – Тошкент: Маънавият, 1999.
2. Дўстқораев, Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи / Б. Дўстқораев. – Тошкент: Фафур Фулом, 2009.
3. Камол, Жамол. Марҳаболар, афандим, бураси – Истанбул!.. / Ж. Камол // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989.

4. Lapasov, M. Mahmudxo‘ja Behbudiy – buyuk ma’rifatparvar [Elektron resurs] / M. Lapasov // O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. – 2023. – 17-may. – URL: <https://www.iiu.uz/oz/news/2212> (murojaat sanasi: 19.09.2026).
5. Тоғаев О. Публицистика жанрлари / О. Тоғаев. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
6. Қосимов, Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик / Б. Қосимов. – Тошкент: Маънавият, 2002.
7. Hekimov, M. Halkseverin hayali / M. Hekimov // 4. Uluslararası Akdeniz Sempozyumu Bildiri Tam Metinleri Kitabı. – Mersin, Turkiya, 2020. – 4-kitob. – B. 168–172.
8. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia / A. Khalid. – Berkeley: University of California Press, 1998.
9. Hanusch, F. The dimensions of travel journalism: Exploring new fields for journalism research beyond the news / F. Hanusch // Journalism Studies. – 2010. – Vol. 11, No. 1. – P. 68–82. – DOI: 10.1080/14616700903290569.
10. Thompson, C. Travel Writing / C. Thompson. – London: Routledge, 2011.